
2024-YIL 19-APREL

FIZIKA FANINI AXBOROT VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR MUHITIDA O‘QITISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

“FIZIKA FANINI AXBOROT VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR MUHITIDA O’QITISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

AXBOROT XATI

ANJUMAN HAQIDA

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-yanvardagi 16-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy-texnik tadbirlar rejasi”ga muvofiq **Navoiy davlat pedagogika instituti** hamda **“Science and innovation”** xalqaro ilmiy jurnali bilan hamkorlikda 2024-yil 19-aprel kuni **“Fizika fanini axborot va innovatsion texnologiyalar muhitida o‘qitishning zamonaviy tendensiyalari: muammo va yechimlar”** mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani tashkil etilmoqda!

Anjuman o‘tkazilish joyi va vaqti: 2024-yil 19-aprel kuni, Navoiy davlat pedagogika instituti (onlayn va offline formatda).

Anjumanga maqolalar qabulining so‘nggi kuni: 2024-yil 10-aprel.

Anjuman tili: o‘zbek, rus, ingliz.

Anjumanning maqsadi: Fizika fanini zamonaviy axborot va innovatsion texnologiyalar muhitida o‘qitishning muommo va yechimlarini o‘rganish, talabalarga zamonaviy o‘qitish usullarini tanitish, shuningdek, fizika fanining nazariyasi va amaliyoti o‘rtasidagi cheklanuvchanliklarni kamaytirish uchun hamkorlikni rivojlantirishni hamda fizika fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llash, o‘qitish usullarini rivojlantirish, zamonaviy yondashuvlarni o‘rganishni, ularda ilmiy va amaliy ishlar olib borishni, hamkorliklarni rivojlantirishni maqsad qiladi.

ANJUMAN TASHKILOTCHILARI

- NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
- “SCIENCE AND INNOVATION” XALQARO ILMIY JURNALI

ANJUMANNING ILMIY YO‘NALISHLARI

1. Fizika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishda ilmiy meroslardan foydalanishning zamonaviy tendensiyalari.
2. Uzluksiz ta’lim tizimida fizikani o‘qitishda zamonaviy ta’lim texnologiyalari (pedagogik, axborot texnologiyalari) dan foydalanish.
3. Fizika fanini o‘qitishda integrativ va fanlararo yondashuvdan foydalanishning muammolari va yechimlari.
4. Zamonaviy fizikaning dolzarb muammolari va yechimlari.
5. Astronomiya fanini axborot texnologiyalari va ilg‘or pedagogik texnologiyalar muhitida o‘qitish.
6. Mirzo Ulug‘bek (Samarqand)ning astronomiya maktabi va uning fanlar taraqqiyotida tutgan o‘rni.

RO‘YXATDAN O‘TISH VA ANJUMAN MATERIALLARINI TAQDIM ETISH

Anjumanda ishtirok etish uchun maqolalar **2024-yil 10-aprelga** qadar @Science_maqola24 (+998 933549654) telegram profili orqali qabul qilinadi.

Xorijlik mualliflar maqolalari info@scientists.uz elektron pochta manzili orqali qabul qilinadi va bepul nashr qilinadi.

Har bir maqola va tezis uchun mahalliy ishtirokchilar uchun 150 000 so‘m to‘lov olinadi. To‘lovlar 9860040104873951 (Raxmatullayeva Gulirano) plastik kartasiga amalga oshiriladi.

To‘lovdan keyin chekni yuborishingizni so‘raymiz.

ANJUMAN MATERIALLARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Maqolada ko‘tarilgan muammolarning mazmuni, tadqiqot uslubining tavsifi, muallif tomonidan olingan natijalar, ma’lumotlar hamda xulosalar qisqa va aniq bo‘lishi kerak.

Rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar:

- Annotatsiya va kalit so‘zlar ko‘rsatib o‘tilishi lozim (uch tilda);
- Maqola matnlari A4 hajmda, yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm hoshiyaga ega bo‘lishi kerak;
- Maqola matni Word matn muharririda, Times New Roman shrifti, 12 o‘lcham, 1,15 intervalda va 3-6 betdan iborat bo‘lishi lozim.

ANJUMAN MATERIALLARINING INDEKSLANISHI

Konferensiyaga qabul qilingan har bir maqola **Polshaning Index Copernicus, Yevropaning Zenodo va Open Aire, Rossiyaning Cyberleninka** xalqaro bazalariga, **scientists.uz** platformasiga joylashtiriladi hamda **Google scholar** xalqaro qidiruv tizimida indekslanadi.

Har bir maqola muallifi uchun alohida **DOI** raqam olinadi.

Har bir muallifga elektron shaklda **sertifikat, indekslanganlik ma'lumotnomasi, indekslangan maqolaning pdf varianti** taqdim etiladi. Konferensiya materiallari to‘plam holatda elektron va bosma nashr etiladi.

TASHKILIY QO‘MITA MANZILI

Manzil: Navoiy viloyati, Navoiy shahri Ibn Sino ko‘chasi 45. Navoiy davlat pedagogika instituti.

Mas'ul: Sayfullayeva Gulhayo – t.f.f.d (PhD), dotsent.

1-ilova

Anjuman ishtirokchisi talabnomasi

1.	Muallif (lar) ning familiyasi, ismi, otasining ismi	
2	Lavozimi, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni	
3	Ish / o‘qish joyi (muassasaning to‘liq nomi, qisqartirishlarsiz), shahar	
4	Maqola mavzusi	
5	Shu'ba tartib raqami	
6	Muallifning E-maili	
7	Muallifning telefon raqami	

2-ilova

NAMUNA:
MAQOLA NOMI

Sodiqov Kamol Izzatullayevich - dotsent, FarDU

Annotatsiya: matn, matn, matn, matn, matn.

Kalit so‘zlar: matn, matn, matn, matn, matn

Asosiy matn….

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. “Universitet” nashriyoti. 2006. – 212 b.
2. Hamrayev M. Ona tili fanidan lisoniy tahlil qoliplari. “Sharq” NMAK. 2015. – 123 b.